XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHI
Q A R O R I

150100, Farg‘ona sh., Alisher Navoiy k., 15-uy, tel: (73) 244-07-35, e-mail: info@ferghana.uz, www.ferghana.uz

2023 - yil 7 - dekabr VI-62-113-11-0-K/23 Farg‘ona viloyati hokimligi

“Farg‘ona-Rishton” magistral gaz quvurining II tarmog‘ini qurish” loyihasi doirasida tegishli yer uchastkalarni olib qo‘yish to‘g‘risida.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni bilan, yer uchastkasini olib qo‘yish bo‘yicha tashabbusning yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yishga asos bo‘ladigan maqsadlar asosida jamoat ehtiyojlariga muvofiqligi hamda yer uchastkasini olib qo‘yish bilan bog‘liq kutilayotgan sarf-xarajatlarning oqilonaligi masalasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, mahalliy Kengashning asoslantiruvchi materiallar kiritilganidan keyin chaqiriladigan navbatdagi ochiq majlisida dastlabki tarzda ko‘rib chiqilishi, shuningdek, yer uchastkasini olib qo‘yish bo‘yicha tashabbusni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, mahalliy Kengashning majlislarida dastlabki tarzda ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra yer uchastkalarini olib qo‘yish bo‘yicha tashabbusning ochiq muhokamasini (bundan buyon matnda ochiq muhokama deb yuritiladi) o‘tkazish to‘g‘risida yoki tashabbusni rad etish haqida qaror qabul qilinishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 18 apreldagi “Farg‘ona vodiysi iste’molchilariga tabiiy gaz resurslarini barqaror yetkazib berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 192-25-sonli qarori ijrosi yuzasidan “Farg‘ona-Rishton” magistral gaz quvurining II tarmog‘ini qurish” loyihasi doirasida Oltiariq va Rishton tumanlari hududidan o‘tgan uzunligi 39 km, diametri 720 mm bo‘lgan magistral gaz quvuri tortilgan.

Viloyat hokimligi (keyingi o‘rinlarda - Tashabbuskor) xalq deputatlari viloyat Kengashiga murojaat qilib, “Farg‘ona-Rishton” magistral gaz quvurining II tarmog‘ini qurish” loyihasi doirasida tegishli yer uchastkalarni olib qo‘yish bo‘yicha tashabbusni dastlabki tarzda xalq deputatlari viloyat Kengashining ochiq majlisida ko‘rib chiqishni so‘ragan.

Mazkur masala davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo‘yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo‘yicha hududiy kuzatuv kengashida ko‘rib chiqilib, 2023 yil 24 oktyabrdagi 315/01-49-sonli yig‘ilish bayoni rasmiylashtirilgan.

Bu bo‘yicha xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023 yil 8 noyabrdagi “Farg‘ona-Rishton” magistral gaz quvurining II tarmog‘ini qurish” loyihasi doirasida tegishli yer uchastkalarni olib qo‘yish bo‘yicha tashabbusni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish haqida””gi VI-61-109-11-0-K/23-sonli qarori qabul qilingan.

Shunga ko‘ra Oltiariq va Rishton tumanlarida ochiq muloqotlar o‘tkazilib, tegishli bayonnomalar rasmiylashtirilgan.

Rishton tumanida o‘tkazilgan ochiq muloqotda 4 nafar huquq egalari bayonnomani imzolashdan bosh tortganligi, barchasi bo‘yicha sabablari ko‘rsatilgan holda tegishli dalolatnomalar tuzilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni 21-moddasida ochiq muhokama yakunlari bo‘yicha tuzilgan bayonnomalar asosida yer uchastkasini olib qo‘yish masalasi xalq deputatatlar mahalliy kengashlari tomonidan tegishli qarorlar qabul qilinishi belgilangan.

Olib qo‘yilayotgan yer uchastkasida amalga oshiriladigan loyihaning va ishlarning tavsifi:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripovning 2022 yil 8 feraldagi xukumat komissiyasi majlisining 17-sonli bayonida Oltiariq hamda Rishton tumanlari hududidan o‘tgan mavjud 1 020 mm bo‘lgan yuqori bosimli “Rishton aylanmasi” magistral gaz quvurining 2-tarmog‘ini qurish taklifi maqullangan.

“O‘ztransgaz” AJ ning 2022 yil 10 apreldagi 21-sonli buyrug‘iga asosan Oltiariq va Rishton tumanlari xududidan o‘tgan mavjud “Rishton aylanmasi” magistral gaz quvurining 2-tarmog‘ini qurishga hamda “O‘ztransgaz”AJ va uning tasarrufidagi tashkilotlarga, “O‘zbekneftgaz”AJ tasarrufidagi mahalliy yetakchi

qurilish tashkiloti “Maxsusenergogaz” AJ bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma tuzgan holda, ob’yektni “tayyor holda topshirishda” va loyixalashtirish ishlarini bir bosqichli tartibda (ishchi loyiha) ishlab chiqish sharti asosida amalga oshirish belgilangan.

“Farg‘ona-Rishton” magistral gaz quvurining II tarmog‘ini qurish” loyihasi doirasida Oltiariq va Rishton tumanlari hududidan o‘tgan uzunligi 39 km bo‘lgan (D 720 mm) magistral gaz quvuri qurilishi 2022 yil aprel oyida boshlanib, 2023 yilning II choragida yakunlanib, sinovdan o‘tkazilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Oltiariq va Rishton tumanlarida o‘tkazilgan ochiq muloqot bayonnomalarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023 yil 8 noyabrdagi “Farg‘ona-Rishton” magistral gaz quvurining II tarmog‘ini qurish” loyihasi (keyingi o‘rinlarda - loyiha) doirasida tegishli yer uchastkalarni olib qo‘yish bo‘yicha tashabbusni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish haqida”gi VI-61-109-11-0-K/23-sonli qaroriga asosan Oltiariq va Rishton tumanlarida ochiq muloqotlar o‘tkazilib, tegishli bayonnomalar rasmiylashtirilganligi inobatga olinsin.

Bunda, Oltiariq tumani hokimligi (Sh.Turdaliyev) hamda Rishton tumani hokimligi (B.Xoliqov)larga o‘tkazilgan ochiq muhokamalar O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni 20-moddasi talablariga qat’iy rioya qilingan holda o‘tkazilganligi bilan bog‘liq shaxsiy mas’uliyat va javobgarlik yuklatilsin.

2. Quyidagilar:

Oltiariq tumanida o‘tkazilgan ochiq muloqotda qatnashgan 2 ta huquq (mulk) egalarining barchasi, shuningdek, Rishton tumanida o‘tkazilgan ochiq muloqotda esa 32 ta huquq egalaridan 28 nafari kompensatsiya shartlariga rozi bo‘lib, o‘z roziligini bildirib, bayonnomaga imzo qo‘yganligi;

Rishton tumanida o‘tkazilgan ochiq muloqotda 4 nafar huquq egalari bayonnomani imzolashdan bosh tortganligi, bu bo‘yicha barchasiga sabablari ko‘rsatilgan holda tegishli dalolatnomalar tuzilganligi **alohida ko‘rsatib o‘tilsin.**

3. Viloyat hokimining o‘rinbosari X.Isaqov, Rishton tumani hokimligi (B.Xoliqov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), “O‘ztransgaz” aksiyadorlik kompaniyasi Farg‘ona magistral gaz quvurlari boshqarmasi (M.Abobakirov) bilan birgalikda kelishuvga erishilmagan *(kompensatsiya shartlariga rozi bo‘lmagan, rozilik xati bermagan hamda bayonnomani imzolashdan bosh tortgan)* 4 nafar huquq egalari *(barchasi jismoniy shaxslar)* bilan amaldagi qonunchilik asosida kelishuvga erishish choralarini ko‘rsin.

4. Quyidagilar:

Yer uchastkalarini olib qo‘yish bo‘yicha tashabbus O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni 4-moddasi 5-xat boshisida nazarda tutilgan “energetika va aloqa tizimining muhandislik ob’yektlari hamda tarmoqlarini qurish (rekonstruksiya qilish)” talablariga muvofiqligi;

Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo‘yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo‘yicha hududiy kuzatuv kengashining 2023 yil 24 oktyabrdagi 315/01-49-sonli yig‘ilish bayoni tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Belgilansinki, loyihani amalga oshirish maqsadida xuquq (mulk) egalarining o‘zlariga tegishli yer uchastkasini jamoat ehtiyoji uchun olib qo‘yilishi bo‘yicha rozilik xatlari, Oltiariq tumani hokimligining 2023 yil 20 noyabrdagi 264/b-sonli hamda Rishton tumani hokimligining 2023 yil 25 noyabrdagi 01-21/77-sonli ochiq muloqot o‘tkazilganligi haqidagi yig‘ilish bayonnomalari ularga tegishli yer uchastkalarini olib qo‘yish uchun asos hisoblanadi.

6. Mazkur Kengash qarorinining 4- va 5-bandlarini inobatga olib, loyiha doirasida tegishli huquq (mulk) egalarini yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yishga ruhsat berilsin.

Belgilansinki, ushbu tadbirlar faqatgina tegishli tuman hokimlari nomiga rozilik xati bergan, o‘tkazilgan ochiq muloqotlarda bevosita qatnashib, o‘z roziligini bildirib (30 nafar), bayonnomaga imzo qo‘ygan mulk (huquq) egalari doirasida amalga oshiriladi.

7. Loyiha doirasida tegishli yer uchastkalari davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilayotgan mulk (huquq) egalari, ularga tegishli bo‘lgan yer uchastkalari va mol-mulklari hamda ularni davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilishi munosabati bilan yetkazilgan zararlar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Belgilansinki, xalq deputatlari viloyat Kengashining mazkur “yer uchastkasini olib qo‘yish to‘g‘risida”gi qarori ushbu yer uchastkalarida joylashgan ko‘chmas mulk ob’yektlarini buzib tashlash uchun asos bo‘lmaydi.

9. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari X.Sirojitdinov va X.Isaqov, Oltiariq tumani hokimligi (Sh.Turdaliyev) hamda Rishton tumani hokimligi (B.Xoliqov) bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni 22-moddasi talablaridan kelib chiqib, huquq egalari bilan kompensatsiyaning shartlari, turlari va miqdori bo‘yicha kelishuvga erishishga doir ishlarni amalga oshirsin.

Bunda, hokimlik va huquq egasi o‘rtasida ikki tomonlama kelishuv imzolanadi, kelishuv notarial tartibda tasdiqlanadi, shuningdek kompensatsiyaning turlari, miqdori va uni berish muddati, shuningdek kompensatsiya to‘liq hajmda berilganidan keyin ko‘chmas mulk ob’yektini bo‘shatish muddati kelishuvda nazarda tutiladi.

10. Belgilansinki, huquq egasi bilan kelishuvga erishilmagan taqdirda, huquq egasini kelishuvni imzolashga majbur qilish maqsadida o‘ziga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk ob’yektlarini erkin tasarruf etishiga monelik qiladigan xatti-harakatlarni sodir etishga, shu jumladan turar joyni (yashash uchun mo‘ljallanmagan joyni), ishlab chiqarish binolari va inshootlarini hamda boshqa binolar va inshootlarni kommunikatsiya tarmoqlaridan, shu jumladan suv ta’minoti, oqova suvlarni chiqarib yuborish, elektr, aloqa, issiqlik va gaz tarmoqlaridan uzib qo‘yishga, ko‘chmas mulk ob’yektlariga kirishni to‘sib qo‘yishga, huquq egasining munosib hayot kechirishi uchun monelik qiladigan shart-sharoitlarni yaratishga yo‘l qo‘yilmaydi.

11. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari X.Sirojitdinov va X.Isaqov, Oltiariq tumani hokimligi (Sh.Turdaliyev) hamda Rishton tumani hokimligi (B.Xoliqov) bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi

Qonuni 29-moddasi talablariga qat’iy amal qilgan holda buziladigan ko‘chmas mulk ob’yektlarini, shuningdek olib qo‘yilgan yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarini baholash ishlarini tashkil etsin.

12. Loyiha doirasida tegishli huquq egalarini yer uchastkalarini olib qo‘yish hamda ko‘chmas mulk ob’yektlarini, shuningdek olib qo‘yilgan yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarini baholash ishlari O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni talablari asosida o‘z vaqtida, sifatli va tizimli amalga oshirilsin.

Bunda,

- hokimlik va huquq (mulk) egalari o‘rtasida ikki tomonlama kelishuv imzolanib, kelishuv notarial tartibda tasdiqlangan bo‘lishiga alohida etibor beriladi;

- kelishuv bitimlarida huquq (mulk) egalariga tegishli yer maydonlari xajmi haqqoniy aks ettirilganligi alohida e’tibor bergan holda, qo‘shib yoki kamaytirib yozish, sifatsiz ishlarni aniqlash va ularni joyida bartaraf etishga alohida e’tibor qaratiladi;

- manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiya holatlariga keskin munosabat bildirib, aybdor shaxslarning javobgarlik masalasini hal etish choralari ko‘riladi.

13. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (N.Mashrapov) Oltiariq tumani hokimligi (Sh.Turdaliyev) hamda Rishton tumani hokimligi (B.Xoliqov) bilan birgalikda kyelishuvda nazarda tutilgan kompensatsiyalar to‘liq hajmda berilganidan keyin kelishuvda nazarda tutilgan kompensatsiyalar berilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni o‘sha kunning o‘zida “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazishning integratsiyalashgan axborot tizimi”ga integratsiya qilingan maxsus axborot tizimiga kiritish choralarini ko‘rsin.

14. Xalq deputatlari viloyat Kengashi xuzuridagi kompensatsiya komissiyasi (Z.Zoxidov) O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni 27-moddasi talablaridan kelib chiqib, kompensatsiyalarni o‘z vaqtida to‘liq hajmda berilishining muntazam monitoringini olib borsin.

Bunda, kompensatsiyalarning o‘z vaqtida va to‘liq hajmda berilmaganligi holati aniqlangan taqdirda Kompensatsiya komissiyasi majlisida monitoring

natijalarini ko‘rib chiqib, kompensatsiya yuzasidan nizo kelib chiqishining oldini olish bo‘yicha tavsiyaviy tusga ega bo‘lgan qaror qabul qilinadi hamda uni kompensatsiyaning o‘z vaqtida va to‘liq berilmaganligiga yo‘l qo‘ygan tashabbuskorga yuboradi hamda xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot kiritadi.

15. Kengashning mazkur qarori ko‘ra olib qo‘yilgan yer uchastkalaridan mazkur qarorda nazarda tutilmagan maqsadlarda foydalanilishi taqiqlanadi.

16. Belgilansiki, O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni 34-moddasi talablaridan kelib chiqib huquq egasiga kompensatsiya berilishi bilan bog‘liq nizolar dastlab sudga qadar tartibda Kompensatsiya komissiyalari tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Bunda, huquq egasiga kompensatsiya berilishi bilan bog‘liq nizo yuzasidan ariza Kompensatsiya komissiyasi arizani olgan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi, Kompensatsiya komissiyasining qaroridan norozi bo‘lgan taraf qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojaat qiladi.

17. Huquq egasiga kompensatsiya berilishi bilan bog‘liq nizo kelib chiqqan taqdirda, agar mazkur nizo sudga qadar tartibda ko‘rib chiqilmagan bo‘lsa va mazkur nizo bo‘yicha sudning qonuniy kuchga kirgan qarori mavjud bo‘lmasa, olib qo‘yilayotgan yer uchastkasida joylashgan ko‘chmas mulk ob’yektlarini buzish haqida qaror qabul qilish taqiqlanadi.

18. Mazkur Kyengash qarori qabul qilingan kuniga qadar kelishuvga erishilmagan *(kompensatsiya shartlariga rozi bo‘lmagan, rozilik xati bermagan hamda bayonnomani imzolashdan bosh tortgan)* 4 nafar huquq egalari bilan O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni talablari asosida kelishuvga erishilgan taqdirda, ularga tegishli yer uchastkalarni olib qo‘yishga mazkur Kengash qarori asos hisoblansin.

19. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

20. Mazkur Kengash qarori ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining “Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi Z.Zoxidov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari X.Isaqovlar zimmasiga yuklansin.

Xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengash raisi



X. Bozarov

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining
2023-yil 7-dekabrdagi
VI-62-113-11-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

“Farg‘ona-Rishton” magistral gaz quvurining II tarmog‘ini qurish” loyihasi doirasida Rishton va Oltiariq tumanlari hududida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan mol-mulklar va ular joylashgan yer uchastkalari hamda ularni davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilishi munosabati bilan yetkazilgan zararlar bo‘yicha

MA’LUMOT

1-jadval

№	**Mulkdor (huquq egasi) F.I.Sh** *(pasport ma’lumotlari asosida)*	**Yashash manzili** (tuman, MFY, ko‘cha, uy raqami	**Pasport ma’lumoti** (raqami va berilgan sanasi)	**O’bekt tasnifi**		**Mavjud yer maydoni (ga)**	**shundan, muhofaza zonasi tushgan yer maydoni (ga)**	**Qurilish osti maydoni (m2)**	**Kadastr hujjatlari ma’lumotlari**	
				(turar/ noturar)	**Uy-joy binosi va boshqa**				**Kadastr raqami**	**Yerga egalik qilish hujjati mavjudligi** *(raqami va sanasi)*
1	Diyorov Baxtiyorjon Islomaliyevich	Rishton tumani Qo‘rg‘oncha MFY, Urtakurgan kuchasi, 45-uy	AA 4958534 02.04.2014	Turar joy	Bino-inshoot mavjud	0,06	0,06	93,66	15:09:03: 01:02:1688	Rishton tuman xokimining 16.01.2019 yil №145 sonli qarori
2	Jurayev Dilshodjon Nurmuxamadovich	Rishton tumani Navbaxor MFY, Navbahor kuchasi, 180-uy	AB 5301916 07.12.2016	Turar joy	Bino-inshoot mavjud	0,10	0,10	231,40	15:09:04: 01:01:1525	Rishton tuman xokimining 14.05.2019 yil №2866 sonli qarori
3	Xamraliyev Ilhomjon Xabibjonovich	Rishton tumani Qayrag‘och MFY, Qayrag‘och kuchasi, 24S-uy	AA 3289133 06.11.2013	Noturar joy	Bo‘sh yer maydoni	0,18	0,1150		15:09:08:01: 01:2519	19.07.2022 yil kungi oilaviy korxona ustav fondidagi ulushni bir qismini qaytarish to‘g‘risidagi shartnoma
4	Xamraliyev Abdullajon Xabibjonovich (Umarova Shoxidaxon Abdug‘apporovna)	Rishton tumani Qayrag‘och MFY, Qayrag‘och kuchasi, 24E-uy	AA 6330909 29.07.2014	Noturar joy	Bo‘sh yer maydoni	0,18	0,062		15:09:08:01: 01:2518	19.07.2022 yil kungi oilaviy korxona ustav fondidagi ulushni bir qismini qaytarish to‘g‘risidagi shartnoma
5	Hamraliyev Shohjahon Habibjon o‘g‘li	Rishton tumani Qayrag‘och MFY, Qayrag‘och kuchasi, 24D-uy	AA 5595791 31.05.2014	Noturar joy	Bo‘sh yer maydoni	0,18	0,10		15:09:08:01: 01:2516	19.07.2022 yil kungi oilaviy korxona ustav fondidagi ulushni bir qismini qaytarish to‘g‘risidagi shartnoma
6	Xamraliyev Inomjon Xabibjonovich	Rishton tumani Qayrag‘och MFY, Qayrag‘och kuchasi, 24V-uy	AB 8481406 29.12.2017	Noturar joy	Bo‘sh yer maydoni	0,18	0,15		15:09:08:01: 01:2520	19.07.2022 yil kungi oilaviy korxona ustav fondidagi ulushni bir qismini qaytarish to‘g‘risidagi shartnoma

7	Xamrliyeva Azizaxon Aduraximovna	Rishton tumani Qayrag‘och MFY, Qayrag‘och kuchasi, 24A-uy	AC 0454277 17.12.2018	Noturar joy	Bo‘sh yer maydoni	0,18	0,18		15:09:08:01: 01:2517	19.07.2022 yil kungi oilaviy korxona ustav fondidagi ulushni bir qismini qaytarish to‘g‘risidagi shartnoma
8	Diyorov Ikromali Islomaliyevich	Rishton tumani Qo‘rgoncha MFY Urtakurgan kuchasi, 56A-uy	AS 1464710 02.11.2018	Turar joy	Bino-inshoot mavjud	0,12	0,12	132,92	15:09:03:01: 02:1803	Rishton tuman xokimining 15.01.2019 yil №133 sonli qarori
9	Ruzimatov Muxitdin Karimovich	Rishton tumani Qo‘rgoncha MFY Yangibog‘ ko‘chasi	AV 5337436 11.12.2016	Turar joy	Bino-inshoot mavjud	0,1155	0,1155	105,10	15:09:03:01: 02:1691	Rishton tuman xokimining 31.05.2019 yil №3594 sonli qarori
10	Nazirov Ganisher Nosirovich	Rishton tumani Zoxidon MFY Zohidon ko‘chasi	AD 4421727 26.08.2023	Noturar joy	Bino-inshoot mavjud	0,10	0,085	94,00	15:09:07:01: 01:5455	Rishton tuman xokimining 22.09.2020 yil №1139 sonli qarori va Rishton tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Sh.Jo‘raevning 08.07.2020 yil Reestr 202001629001470 sonli noturar joy bir qismini oldi-sotdi shartnomasi
11	Egamnazarov Baxromjon Kamoldinovich	Rishton tumani, Zoxidon MFY, Qo‘rg‘oncha kuchasi, 32A-uy	AB9024340 3160377 4210013	Turar joy	Bo‘sh yer maydoni	0,10	0,10		15:09:06:01: 02:1941	Rishton tumani xokimining 06.03.2002 yildagi № 262 sonli qarori
12	Egamnazarova Fotimaxon Isroilovna	Rishton tumani Zoxidon MFY Qo‘rg‘oncha kuchasi, 33A-uy	AB0825548 22.08.2015	Turar joy	Bo‘sh yer maydoni	0,10	0,10		15:09:06:02: 01:8571	Rishton tumani xokimining 06.03.2002 yildagi № 262 sonli qarori
13	Ubaydullayev Sherzod Ozodjon o‘g‘li	Rishton tumani Zoxidon MFY Zoxidon kuchasi, 50A-uy	AB 1684772 27.04.1993	Turar joy	Bino-inshoot mavjud	0,12	0,05	191,32	15:09:04:01: 02:2610	Rishton tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius B.Karimovning 27.01.2023 yil reestr 202302325000532 sonli ko‘chmas mulk xadya shartnomasi.
14	Sobirova Mamlakatxon Musayevna	Rishton tumani Zoxidon MFY Zoxidon ko‘chasi 32-uy	AD 4596969 14.09.2023	Noturar joy	Bo‘sh yer maydoni	0,58	0,58		15:09:07:01: 01:0351 15:09:07:01: 01:0631	12.01.2021 yildagi bino va inshootlarni oldi-sotdi shartnomasi. Rishton tuman hokimining 23.08.2019-yidagi 6063-sonli qarori
15	Teshaboyeva Kambansa Jamoldinovna	Rishton tumani Zoxidon MFY Qo‘rg‘oncha ko‘chasi 44-uy	AC 2700945 11.02.2020	Turar joy	Bino-inshoot mavjud	0,10	0,10	68,36	15:09:07:01: 03:1357	Rishton tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Sh.Jo‘raevning 03.02.2022 yil Reestr 202201629000631 sonli turar joy oldi-sotdi shartnomasi.
16	Topivoldiyev Xasan Mamadaliyevich	Rishton tumani Pandigon MFY Uzun kucha kuchasi, 1-uy	AB5294329	Turar joy	Bino-inshoot mavjud	0,1870	0,1870	689,63	15:09:06:01: 01:1910	Rishton tuman xokmining 08.02.2020 yil №152 sonli qarori. Qurilishi tugallangan (rekonstruktsiyasi) ob’yektdan foydalanish uchun 23.06.2022 yildagi ruxsatnoma.
17	Isakov Baxtiyor Ibroximovich (marhum) Isaqova Maxbubaxon Axunjonovna	Rishton tumani Zoxidon MFY Zoxidon kuchasi, 25A-uy	AB 9065193 14.03.2018	Turar joy	Bo‘sh yer maydoni	0,16	0,13		15:09:07:01: 02:3091	12.10.2001 yildagi mulkiy huquqini tasdiqlovchi davlat orderlar № 11928,11920,11927

18	Yakubov Maxsudjon Mamadaliyevich	Rishton tumani Zoxidon MFY Zoxidon kuchasi, 55A-uy	AC 1064605 19.09.2018	Turar joy	Bo‘sh yer maydoni	0,12	0,12		15:09:10:01: 02:3022	20.04.2001 yildagi 11472-sonli mulkiy xuquqni tasdiqlovchi davlat orderi, 20.04.2001 yildagi 11471-sonli mulkiy xuquqni tasdiqlovchi davlat orderi
19	"Abdumajid" xususiy firmasi	Rishton tumani Pandigon MFY A.Temur ko‘chasi 109A-uy	AB 6573530 08.05.2017	Noturar joy	Bo‘sh yer maydoni	0,61	0,61		15:09:41:02: 02:0022	Rishton tuman hokimining 07.04.2003-yildagi 686-sonli qarori, Rishton tuman hokimining 21.09.1999-yildagi 307-sonli qarori,
20	"Istiklol" oilaviy korxonasi	Rishton tumani Qayrag‘och MFY Qayrag‘och kuchasi, 24-uy	AC 0454277 17.12.2018	Noturar joy	Bino-inshoot mavjud	4,59	4,59	687,73	15:09:04:03: 02:2515	Rishton tuman xokimining 07.08.2013-yil 668-sonli qarori xamda Oilaviy korxona ustav fondidagi ulushni bir qismini qaytarish to‘g‘risida 19.07.2022-yildagi shartnoma
21	Yakubova Ozodaxon Mamadaliyevich	Rishton tumani Zoxidon MFY Zoxidon kuchasi, 86A-uy	AA 6392272 10.08.2014	Turar joy	Bo‘sh yer maydoni	0,12	0,12		15:09:01:11: 01:0061	01.02.2002 yildagi mulkiy huquqini tasdiqlovchi davlat orderi № 12145 va 24.12.2001 yildagi 1205-sonli oldi sotdi shartnomasi
22	Latipov Axrorjon Azizovich	Rishton tumani, Zoxidon MFY, Zoxidon kuchasi, 26A va 27A-uy	AB 0045718 12.06.2015	Turar joy	Bo‘sh yer maydoni	0,12	0,035		15:09:07:01: 02:3092 15:09:07:01: 02:3093	26.07.2001 yildagi №11699 sonli mulkiy xuquqni tasdiqlovchi davlat orderi, Mulkiy xuquqni tasdiqlovchi davlat orderi 26.07.2001 yil №11698
23	Mamayeva Xolidaxon Mamasodikovna	Rishton tumani Zoxidon MFY Zoxidon kuchasi, 30A-uy	AB 9545395 15.05.2018	Turar joy	Bino-inshoot mavjud	0,12	0,12	164,56	15:09:05:03: 01:0978	Rishton tumani 2-sonli DNIning 2009-yil 4-may kungi № 2388 reestr raqamli xovli joyni oldi-sotdi shartnomasi
24	Mirzajonov Musojon Tojaliyevich	Rishton tumani Zoxidon MFY Zoxidon kuchasi, 54A-uy	FA5545067 3090758 4210010	Turar joy	Bino-inshoot mavjud	0,12	0,07	302,80	15:09:03:02: 01:0214	Qurilishi (rekonstruktsiya) tugallangan ob’yektdan foydalanish uchun ruxsatnoma № 1730224-075180 Ariza raqami: 99077009 Berilgan sanasi: 2023-09-10
25	Ruzibayev Sayibjon Ilyosovich	Rishton tumani Zoxidon MFY Zoxidon kuchasi, 28A-29A-uy	AB 1857029 14.11.2015	Turar joy	Bo‘sh yer maydoni	0,12	0,06		15:09:07:01: 02:3095 15:09:07:01: 02:3094	12.10.2001 yil №11919 sonli Mulkiy xuquqni tasdiqlovchi davlat orderi, Mulk xuquqini tasdiqlovchi 18.09.2001 yil №11918 sonli davlat orderi
26	Urinboyev Ulug‘bek Uktamovich (Urinboyev Jaxongir O‘ktamovich)	Rishton tumani Zoxidon MFY Zoxidon kuchasi, 81A-uy	AC1886359 07.05.2019	Turar joy	Bino-inshoot mavjud	0,12	0,12	99,66	15:09:04:01: 01:6248	Mulkiy xuquqni tasdiqlovchi davlat orderi 12.10.2001 yil №11923 va 12.10.2001 yil №11924 Qurilishi (rekonstruktsiya) tugallangan ob’yektdan foydalanish uchun ruxsatnoma № 1730224-085614
27	Mamadaliyeva Mahbuba Ibragimovna	Rishton tumani Navbaxor MFY Bodomzor kuchasi, 35 A-uy	AC 0260764 20.11.2018	Turar joy	Bino-inshoot mavjud	0,1125	0,1125	196,40	15:09:08:02: 02:0367	Rishton tumani xokimining 07.12..1997 yil №178G/12 sonli qarori, Qurilishi (rekonstruktsiya) tugallangan ob’yektdan foydalanish uchun ruxsatnoma № 1730224-085625 Ariza raqami: 101464359 Berilgan sanasi: 2023-10-30

28	Ubaydullayev Ozadjan Mamajonovich	Rishton tumani Zoxidon MFY Zoxidon kuchasi, 31A-uy	AB 9465970 01.05.2018	Turar joy	Bo‘sh yer maydoni	0,06	0,03		15:09:07:01: 02:3096	Davlat mulkimi boshkarish va tadbirkorlarni kullab kuvatlash fargona viloyat boshkarmasi 28,09,2001 yil №7521/113 sonli buyrugi xamda mulk xukukni tasdiklovchi davlat orderi 11921 18,09,2001 yil
29	Xodjayeva Muborakxon Maxmudjonovna	Rishton tumani Zoxidon MFY Zohidon ko‘chasi 18-uy	AB 6828200 03.06.2017	Noturar joy	Bino-inshoot mavjud	0,30	0,30	268,56	15:09:05:03: 01:7452	Rishton tuman hokimining 19.09.2016-yildagi 997-sonli qarori
30	Polvonov Djumanazar Xakimdjonovich	Rishton tumani T.Axmedov MFY T.Axmedov kuchasi, 43-uy	AC 0843057 25.08.2018 32407594 210032	Noturar joy	Bino-inshoot mavjud	0,1691	0,1691	490,65	15:09:06:01: 01:9987	Respublika ko‘chmas mulk birjasining 30.03.2011-yildagi 48/596-sonli shartnoma
31	Topivoldiyev Farxod Mamadaliyevich	Rishton tumani Pandigon MFY Uzun kuchasi, 2-uy	AC 2917304 24.07.2020	Turar joy	Bino-inshoot mavjud	0,13	0,13	423,31	15:09:02:01: 01:5161	Rishton tuman hokimining 03.06.2019-yildagi 4223-sonli qarori
32	Sirdaryo sux irrigatsiya nasos	Rishton tumani Pandigon MFY	204717522	Noturar joy	Bino-inshoot mavjud	0,09	0,09	160,86	15:09:02:01: 02:3626	
33	Vaxobov Xayitboy Abduraxmonovich	Oltiariq tumani G‘ayrat MFY	AS 3141626 15.11.2020 y	Noturar joy	Bino-inshoot mavjud	0,23	0,23	252,65	15:07:02:02: 01:8989	31.07.2013 y FA 1275383-sonli meros ishi orkali marhum Vaxobov Abduraxmon Malikovichdan o‘g‘li Vaxobov Xayitboy Abduraxmonovichga meros mulki sifatda o‘tgan
34	Yuldashev Ibroxim Ismoilovich	Oltiariq tumani Yangiobod massivi	AV 5515759 26.12.2016 y	Noturar joy	Bo‘sh yer maydoni	1,20	0,15		15:07:00: 001:2169	Oltiariq tuman hokimining 2002-yil 2 setyabr’ kungi №685-sonli qaror
Fermer xo‘jaliklari, bog‘dorchilik yer maydonlariga yetkazilgan zarar			x	x	x	x	x	x	x	x
Jami		**x**	**x**	**x**	**x**	**11,08**	**9,39**	**4653,57**	**x**	**x**

1a-jadval

№	**Mulkdor (huquq egasi) F.I.Sh** *(pasport ma'lumotlari asosida)*	**Huquqiy xujjat bo'yicha yer maydoni**	**Davlat ro'yxatidan o'tganligi** *(ro'yxatdan o'tgan raqami va sanasi)*	**Fuqarolar bilan kelishilgan ligi holati** (rozilik xati va ochiq muloqot bayoni sanasi va raqami)	**Buzib tashlanishi lozim bo'lgan ko'chmas mulk ob'yektlari nomi**	**Ob'yektlarning joylashuv lokatsiyasi**	**Yetkazilgan zararlni baholash qiymati** *(so'mda)*
1	Diyorov Baxtiyorjon Islomaliyevich	0,06	1730224/R-A2804407 16.06.2022	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni	28,22 m2 yashash maydoni, 242,11 m2 boshqa bino-inoshoot	40°22'46.6"N 71°11'28.7"E	330 000 000
2	Jurayev Dilshodjon Nurmuxamadovich	0,06	1730224/R-A4293210 28.09.2023	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni	33,12 m2 yashash maydoni, 116,65 m2 boshqa bino-inoshoot	40°20'28.8"N 71°07'26.2"E	301 595 533
3	Xamraliyev Ilhomjon Xabibjonovich	0,18	1730224/R-A2966383 10.08.2022	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni		40°22'41.5"N 71°22'37.0"E	377 950 000
4	Xamraliyev Abdullajon Xabibjonovich (Umarova Shoxidaxon Abdug'apporovna)	0,18	1730224/R-A2966400 10.08.2022	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni		40°22'42.9"N 71°22'37.4"E	130 258 000
5	Hamraliyev Shohjahon Habibjon o'g'li	0,18	1730224/R-A2966390 10.08.2022	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni		40°22'42.3"N 71°22'37.1"E	220 502 000
6	Xamraliyev Inomjon Xabibjonovich	0,18	1730224/R-A2966374 10.08.2022	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni		40°22'40.0"N 71°22'36.1"E	380 686 000
7	Xamrliyeva Azizaxon Aduraximovna	0,18	1730224/R-A2966406 10.08.2022	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni		40°22'38.4"N 71°22'35.3"E	379 287 000
8	Diyorov Ikromali Islomaliyevich	0,06	1730224/R-A2642925 27.04.2022	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni	48,13 m2 yashash maydoni, 104,19 m2 boshqa bino-inoshoot	40°22'45.8"N 71°11'29.0"E	300 028 000
9	Ruzimatov Muxitdin Karimovich	0,1155	1730224/R-A752983 15.01.2020	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni	16,77 m2 yashash maydoni, 55,75 m2 boshqa bino-inoshoot	40°20'54.8"N 71°09'08.6"E	247 471 000
10	Nazirov Ganisher Nosirovich	0,10	1730224/R-A1274475 09.10.2020	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni		40°23'39.5"N 71°15'19.0"E	240 979 000
11	Egamnazarov Baxromjon Kamoldinovich	0,10	1730224/R-A3575184 20.02.2023	* Tuman hokimligi ishchi guruxining 23.11.2023 yildagi dalolatnomasi (kelishuv bitimini imzolashdan bosh tortganligi bo'yicha)		40°23'54.2"N 71°15'29.2"E	241 469 698
12	Egamnazarova Fotimaxon Isroilovna	0,10	1730224/R-A3575199 20.02.2023	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni		40°23'54.9"N 71°15'29.2"E	240 979 000
13	Ubaydullayev Sherzod Ozodjon o'g'li	0,12	1730224/R-A3501066 30.01.2023	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni		40°23'42.6"N 71°15'27.2"E	132 000 000
14	Sobirova Mamlakatxon Musayevna	0,58	1730224/R-A2364457 18.01.2022	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni		40°23'41.0"N 71°15'20.3"E	850 335 000

15	Teshaboyeva Kambansa Jamoldinovna	0,10	1730224/R-A2432520 08.02.2022	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni	68,36 m2 boshqa bino-inoshoot (beton poydevor)	40°23'55.5"N 71°15'29.0"E	210 000 000
16	Topivoldiyev Xasan Mamadaliyevich	0,10	1730224/R-A2849997 02.07.2022	* Tuman hokimligi ishchi guruxining 23.11.2023 yildagi dalolatnomasi (kelishuv bitimini imzolashdan bosh tortganligi bo‘yicha)	112,08 m2 yashash maydoni 503,58 m2 boshqa bino va inshootlar	40°23'42.1"N 71°15'06.3"E	917 209 785
17	Isakov Baxtiyor Ibroximovich (marhum) Isaqova Maxbubaxon Axunjonovna	0,16	1730224/R-A4288120 29.09.2023	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni		40°23'44.3"N 71°15'27.6"E	370 162 000
18	Yakubov Maxsudjon Mamadaliyevich	0,12	1730224/R-A4274185 22.09.2023	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni		40°23'43.1"N 71°15'24.7"E	305 000 000
19	"Abdumajid" xususiy firmasi	0,61	1730224/Y23001285 21.11.2023	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni		40°23'39.7"N 71°15'06.7"E	1 192 000 000
20	"Istiklol" oilaviy korxonasi	4,59	04/03-sonli kadastr kitobining 56-betida 7-tartib raqam bilan	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni	687,73 m2 boshqa bino-inoshoot	40°22'42.5"N 71°22'33.2"E	1 294 532 000
21	Yakubova Ozodaxon Mamadaliyevich	0,12	1730224/R-A4379827 2023-11-03	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni		40°23'42.6"N 71°15'24.4"E	305 558 000
22	Latipov Axrorjon Azizovich	0,12	1730224/R-A4399847 01.11.2023 1730224/R-A4371303 27.10.2023	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni		40°23'42.0"N 71°15'27.2"E	119 429 000
23	Mamayeva Xolidaxon Mamasodikovna	0,12	1730224/R-A4303403 26.10.2023	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni	164,56 m2 boshqa bino-inoshoot (issiqxona)	40°23'40.6"N 71°15'24.7"E	305 000 000
24	Mirzajonov Musojon Tojaliyevich	0,12	1730224/R-A4385697	* Tuman hokimligi ishchi guruxining 23.11.2023 yildagi dalolatnomasi (kelishuv bitimini imzolashdan bosh tortganligi bo‘yicha)	78,68 m2 yashash maydoni, 146,01 m2 boshqa bino-inoshoot	40°23'40.5"N 71°15'23.4"E	658 711 140
25	Ruzibayev Sayibjon Ilyosovich	0,12	1730224/R-A4385292 30.10.2023 1730224/R-A4385308 30.10.2023	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni		40°23'43.5"N 71°15'27.1"E	305 575 620
26	Urinboyev Ulug‘bek Uktamovich (Urinboyev Jaxongir O‘ktamovich)	0,12	1730224/R-A4391932 30.10.2023	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni	77,04 m2 yashash maydoni, 15,90 m2 boshqa bino-inoshoot	40°23'41.9"N 71°15'24.7"E	527 320 000
27	Mamadaliyeva Mahbuba Ibragimovna	0,10	1730224/R-A4391521 30.10.2023	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni	80,72 m2 yashash maydoni, 24,00 m2 boshqa bino-inoshoot	40°20'17.1"N 71°07'33.4"E	240 128 000
28	Ubaydullayev Ozadjan Mamajonovich	0,06	1730224/R-A4393646 01.11.2023	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni		40°23'43.1"N 71°15'27.1"E	132 000 000
29	Xodjayeva Muborakxon Maxmudjonovna	0,30	1730224/R-A4403750 02.11.2023	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni	268,56 m2 noturar bino-inshoot	40°23'40.6"N 71°15'14.9"E	993 446 075

30	Polvonov Djumanazar Xakimdjonovich	0,0083	06/01-sonli kadastr kitobining 9-betida 11-tartib raqam bilan	* Tuman hokimligi ishchi guruxining 23.11.2023 yildagi dalolatnomasi (kelishuv bitimini imzolashdan bosh tortganligi bo‘yicha)	490,65 m2 Noturar bino va inshootlar	40°22'33.7"N 71°22'21.1"E	0
31	Topivoldiyev Farxod Mamadaliyevich	0,13	1730224/R-A4404991 02.11.2023	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni	161,57 m2 yashash maydoni 89,83 m2 boshka bino va inshootlar	40°23'41.9"N 71°15'04.1"E	997 401 000
32	Sirdaryo sux irrigatsiya nasos	0,03		Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 25.11.2023 y №01-21/77-sonli ochiq muloqot bayoni	160,86 m2 Noturar bino va inshootlar	40°23'42.1"N 71°15'07.6"E	274 116 148
33	Vaxobov Xayitboy Abduraxmonovich	0,02	07.02.2023 yil №1730203/R-A3524828	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 20.11.2023 y №264/b-sonli ochiq muloqot bayoni	252,65 m2 Noturar bino va inshootlar	N40°22'32.3873" E71°22'33.7141"	1 066 000 000
34	Yuldashev Ibroxim Ismoilovich	1,20	26.10.2023 yil №1	Tuman hokimi nomiga rozilik xati mavjud, tuman hokimligining 20.11.2023 y №264/b-sonli ochiq muloqot bayoni		N40°19'54.9612" E 71°23'40.5429"	180 000 000
Fermer xo‘jaliklari, bog‘dorchilik yer maydonlariga yetkazilgan zarar		x	x	x	x	x	1 286 100 000
Jami		**10,45**	**x**	**x**	**x**	**x**	**16 053 228 999,0**